

“TARIXI RASHIDIIY” TARIXIY-MEMUAR ASAR

Shukurova Zilola Fazlidinovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

zilolashukurova618@gmail.com

Annotation: This article is devoted to book which is historical and memoir of Uzbek nation, created in 14-16 centuries. It gives a huge historical, real happened information about great emperors, historians, poets, writers and many legends of that time of the country. The book consists of two notebooks which is divided into special features of an extraordinary book.

Key words: memoir, historical, legends, real information, great emperors.

Tarixan Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning “Tarixi Rashidiy” asaridagi nafaqat milliy, balki ko‘pgina jahon adabiyoti namoyondalarining nazarida bo‘lgan. Bugungi kunga qadar asar rus, turk, xitoy, qozoq, uyg‘ur kabi ko‘pgina Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilingan. Xususan, 1940-yilda E.Denison Ross va Neil Elias tomonidan ingliz tiliga o‘girilgan. “Tarixi Rashidiy” ni ingliz tiliga ilk marta britaniyalik sharqshunos olim Eduard Denison Ross (1871-1940) tarjima qilgan edi.

Dastlab, “Tarixi Rashidiy” asari Emin Vongning evarasi Mir Tohirning o‘g‘li, Qashqar hokimbegi Zuhuriddin hokimbekning farmoniga binoan Xoja Muhammad Sharif tomonidan fors tilidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Britaniya “Qirollik geografiya jamiyat”ning oltin medal sohibi, Britaniya qirolichasining XuRossi va Seyistonga tayinlagan konsul-generali, geograf, sayyoh olim Ney Elias (1844-1897) esa tarjimani tahrir qilib, izohlar va xarita bilan boyitib, Londonda 1895 yili “Sampson Lou, Martson and Company, Ltd.”da bosib chiqargan.

Ney Elias “Tarixi Rashidiy”ning tarjimasiga yozgan so‘zboshisida bu nashr asarning ingliz tiliga birinchi rasmiy tarjimasi bo‘lsa-da, forsiy va turkiy tillarni biluvchi sharqshunos U.Erksin, H.Hovort, serjant-general B.H.Belyu, Eliot, R.B.Cho kabi g‘arb olimlari mazkur asar bilan allaqachon tanishib, o‘z tadqiqotlarida foydalanib ulgurishgan edi, deb xabar qiladi. Hatto olim R.B.Cho asarning faqat geografiyaga oid qismlarini ajratib olib, tarjima qilgan va 1976 yili “Geographical Society’s Journal” (Buyuk Britaniyada taxminan 1831yildan chiqa boshlagan) jurnalida nashr etgan.

Shuningdek, sharqshunos olim U.Erksin ham asarning ayrim boblarini ingliz tiliga o‘girgan, ammo bu tarjima hech qayerda chop etilmagan.

N.Eliasning taxminiga ko‘ra, umuman Erksin “Tarixi Rashidiy”ni nashr etish uchun tarjima qilmagan, balki o‘sha paytda yozayotgan kitobi “Temur xonadonidan chiqqan ilk ikki shahzoda Bobur va Humoyun qo‘li ostidagi Hindiston tarixi” (“A History of India under the Two First Sovereigns of the House of Taimur: Baber and Humayun”, London,1854) kitobida foydalanish uchungina bunga qo‘l urgan.

A.O‘rinboyev, R.Jalilova va L.Epifanova ruschaga tarjima qilib, so‘zboshi va zarur izohlar bilan, 1996-yili Toshkentda chop etgan.

Mazkur tarixiy memuar asar juda ko‘pchilik tilshunos, adabiyotshunos va tarjimashunos tadqiqotchilarning e’tiborida bo‘lishiga qaramasdan, ularning tadqiqotlarida romandagi fraziologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini maxsus Vahob Rahmonov va Yanglish Egamova tabdiloti (2010), E.Denisson Ross (1940) tarjimalari asosida qiyosiy tadqiq etish vazifasi qo‘yilmagan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharxshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy (1499-1551) tomonidan 1541-1546 yillarda fors tilida yozilgan tarixiy-memuar asar “Tarixi Rashidiy”ning Xoja Muhammad Sharif tomonidan (1837-1838) yillar davomida amalga oshirilgan turkcha tarjimasi saqlanib kelmoqda.

“Tarixi Rashidiy” XIV-XVI asrlar Markasiy Osiyo, jumladan, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston, qisman Tibatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, chunonchi, davlatchilik tizimi, xalqaro munosabatlari, jug‘rofiyasi, etnografiyasi, etnogenezini urganishda muhim manba hisoblnadi.

Asar ikki daftardan tashkil topgan. Birinchi daftarda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda o‘tgan Chingizzon, Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur avlodlarining XVI asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr tarixi, sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari hamda Boburiylar, qolaversa, Shayboniylar, Amir Husayn, dug‘lot amirlari ulus beklarining faoliyatlari yoritilgan. Ikkinci daftar esa muallifning sarguzashtlari, zamonasining buyuk siymolaridan eshitganlari yozib qo‘yilgan xaqiqiy dalillar bilan to‘lib-toshgan kundalik daftari hisoblanadi.

“Tarixi Rashidiy” da Markaziy Osiyo madaniy xayoti, u davr namoyandalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, mamlakatda yashab o‘tgan ulamo, mashoyixlar, mutafakkir olimlaru shoirlar, musavvir, hattot, naqqosh va hunarmandlar haqida ajoyib bibliografik ma’lumotlar keltirilgan. Mavlono Sa’duddin Taftazoniy (1322-1392), Xoja Alouddin Attor (vafoti 1400), Mir Sayyid Sharif Jurjoniy (1339-1413), Xoja Muhammad Porso (1348-1420), Mavlono Nizomuddin Xomush, Mavlono Yoqub

Charxiy (vafoti 1447), Saduddin Koshg‘ariy (vafoti 1456), Mavlono Lutfiy (1366-1465), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490), Sulton Husayn Boyqaro (1438-1506), Mavlono Abdurahmon Jomiy (1414-1492). Hazrat Alisher Navoiy (1441-1501), Mavlono Abdug‘afur Lory (1506 yilda vafot etgan), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Kamoliddin Behzod (1455-1537), Kamoliddin Binoy, Mavlono Shamsuddin, Mir Husayn Muammoysi, Xoja Abdulloh Marvorid, Shayx Muzaffar Mir Jaloliddin Muhandis, Mir Muhammadiy, Mir Yusufiy (vafoti 1543-1544), Sayfiy, Ohiy, Ahliy, Firoqiy va boshqalar haqida juda boy tarixiy meros bizgacha qoldirilgan.

Ingliz tilida “Tarixi Rashidiy” (1895, 1898, 1972, 1996), xitoy tilida (1985), rus tilida (1996, 1999) va qozoq (2003), turk tarjimalari (2006) mavjud bo‘lib, hozirgi kunda zamonaviy nashrlari ham bor. “Tarixi Rashidiy” o‘zbekcha uyg‘urcha (2007) tarjimalari mavjud bo‘lgan, lekin u nashr etilmagan. O‘zbekiston tarixi va qo‘shni davlatlar bilan aloqalarini aks ettiruvchi ushbu madaniy merosimiz namunasining o‘zbekcha-uyg‘urcha tarjimasi matni hali nashr etilmagan. Ushbu memuar asar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Tarixi Rashidiy”ning turk tiliga tarjimasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi fondida saqlanayotgan boshqa turkiy nusxalar bilan solishtirildi va kamchiliklari to‘ldirildi. Ushbu nashr xalqimizning tarixiy ongini shakllantirishga, tarixiy xotirasini tiklashga, tariximiz va o‘zligimizni bilishga, Respublikamiz mustaqilligini mustahkamlashga, xalqimiz tarixini yanada boyitishga katta hissa qo‘shishi shubhasiz, millatning ma’rifiy ma’naviyatitini boyitishga ulkan hissa qo‘shishiga va hizmat qilishiga ishonchimiz komil. Xalqimiz o‘zining oltin merosini ona tilida o‘qishga tuyassar bo‘lishi ham diqqatga sazovor. O‘zbekiston tarixini yorituvchi kitoblariga mushtoq bo‘lib yurgan xalqimiz, ayniqsa, ilm shaydolari, talabalarimizga bu kitob arzигудай armug‘on bo‘ladi, degan umiddamiz.

“Tarixi Rashidiy” Turkcha tarjimasining D 138 (5900) raqamli qo‘lyozma nusxasi ishlov berilgan yashil charm mukovalidir. U 246 varaqli bo‘lib, bichimi 42x28 sm, yupqa sarg‘ish mahalliy qog‘ozga nasta’lik xatida, matn qora siyohda, mavzulari, fasllarning nomlari esa qizil siyohda yozilgandir. Asarning tarjimonini va tarjima qilingan yili nomalam. “Tarixi Rashidiy” to‘rt qism (rukni) ga bo‘lingan holda qisqartirilib tarjima qilingan. Uni usti 11, 12, 13, 53-65- fasllar va 14- faslning boshi tushirib ko‘chirishgan, qo‘lyozma 1308/1890-1891 yillarda ko‘chirilgan.

K. Zaleman “Tarixi Rashidiy”ning tarjimonini Muhammad Sodiq Koshg‘ariy bo‘lsa kerak deb faraz qilsa, A.M. Muginov asarni boshqa tarjimalarga solishtirib, uning tarjimonini Muhammad Niyoz bin Abdug‘afur, degan fikrga kelgan.

Biz A.M. Muginov fikriga qushilamiz va u asar ancha haqiqatga yaqin ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

“Tarihi Rashidiy” C 569 (590o) raqamli tarjima qo‘lyozmaning turkiy tarjimasi Uyg‘ur tarixchi olimi va shoiri Muhammad Sodiq Koshg‘ariy (172-1849) Koshg‘ar hokimi Yunus Tojibek bin Iskandarbek bin Emin xoja farmoni bilan amalga oshirilgan. Ammo, bu qo‘lyozmaga “Tarixi Rashidiy” ning I, II, III ruknlarining tarjimasigina joylangan. Demak, C 569 (590o) raqamli qo‘lyozmani xam “Tarihi Rashidiy”ni turkcha tarjimasining to‘la nushxasi deb bo‘lmaydi.

“Tarixi Rashidiy” Turkcha tarjimasining D 138 (5900) raqamli qo‘lyozma nushxasi yashil charm muqovalidir. U 246 varaqli bo‘lib, bichimi 42x28 sm, yupqa sarg‘ish mahalliy qog‘ozga nasta’lik xatida, matn qora siyohda, mavzulari, fasllarning nomlari esa qizil siyohda yozilgan. Asarning tarjimoni va tarjima qilingan yili noma’lum. “Tarixi Rashidiy” to‘rt qismga bo‘lingan holda qisqartirilib tarjima qilingan. Uni usti 11, 12, 13, 53-65- fasllar va 14-faslning boshi tushirib qolingga. qo‘lyozma 1308/1890-1891 yillarda ko‘chirilgan.¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muginov A.M. Osiyo xalqlari institutining uyg‘ur qo‘lyozmalarining tavsifi. Moskva: Sharq adabiyoti nashriyoti.,
2. “Tarixi Rashidiy” asarining tabdiloti
3. Dilbarxon Ahmedova, tadqiqotchi (AQSH), Jahon adabiyoti, 2014, 8-sun
4. “История Рашиди” (2010), 6-bet

¹ Muginov A.M. Osiyo xalqlari institutining uyg‘ur qo‘lyozmalarining tavsifi. Moskva: Sharq adabiyoti nashriyoti, 1962. - 37-44-betlar.